

AHOLI DAROMADLARI OSHIRISH VA AHOLI
KAMBAG'ALLIGINI QISQARTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Muxammedov Jasurbek Olloberdi o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti magistranti

Email: jasurmuxammedov22@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada global miqyosda aholi farovonligini yuksaltirish, daromadlarni oshirish va kambag'allikni qisqartirish borasidagi eng samarali xorijiy modellar hamda tajribalar tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda Xitoyning maqsadli («manzilli») kambag'allikni tugatish strategiyasi, Germaniya (Yangi qishloq) harakati, mamlakatlarining shartli pul o'tkazmalari dasturlari o'rganilgan. Maqolada xorijiy davlatlarning muvaffaqiyatli darslari asosida O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy yordam tizimini transformatsiya qilish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlari, xorij tajribasi, manzilli yordam, ijtimoiy himoya, bandlik, inklyuziv iqtisodiy o'sish.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda aholi farovonligini yuksaltirish va kambag'allikni tizimli qisqartirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Mamlakatimizda mutlaqo yangi institutlar — "Hokim yordamchilari" tizimi, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri", "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" kabi manzilli mexanizmlar joriy etildi. Biroq, globallashuv, geosiyosiy o'zgarishlar va iqlim inqirozi sharoitida aholi daromadlarini barqaror o'stirish yanada moslanuvchan va ilg'or yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, dunyo miqyosida iqtisodiy mo'jizalar yaratgan va kambag'allikni minimal darajaga tushirishga erishgan xorijiy davlatlar tajribasini chuqur tahlil qilish hamda ularning muvaffaqiyatli darslarini milliy iqtisodiyotimiz xususiyatlaridan kelib chiqqan holda transformatsiya qilish bugungi kunda favqulodda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonning bir qator mamlakatlarida aholi o'rtasida daromadlar darajasining farqlanishi kuzatilayotgan, daromadlar tengsizligi pasayayotganligini ta'kidlash lozim. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, BMT dunyo mamlakatlarining rivojlanganlik maqomini inson taraqqiyoti indeksi bilan belgilaydi va bu kategoriya 1990 yildan beri inson taraqqiyoti indeksining mamlakatlar bo'yicha e'lon qilinishi bilan bog'liq. Ushbu tashkilot rivojlangan mamlakat yuqori inson taraqqiyotiga ega bo'lishi bilan aks etishini e'lon qilib keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon banki rivojlangan mamlakat maqomini to'g'ridan-to'g'ri ishlatmasada, yuqori daromadli mamlakatlarning rivojlangan toifasiga tegishli ekanligini kuzatish mumkin. Bunda mamlakatlar milliy daromadlari o'rtacha taqsimoti nuqtai nazaridan davlatlarning iqtisodiy

maqomini belgilashda foydalanib kelishini ko'rish mumkin. Jahon banki ekspertlari tomonidan kambag'allikning – qashshoqlik (1,90 AQSh doll. dan kam) va mo'tadil kambag'allik (1,90 – 3,10 AQSh doll. oralig'i) turlari ajratib ko'rsatiladi.

“Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotiga ko'ra, 2019 yilda dunyo bo'ylab 630 milliondan ortiq ishchilar, ya'ni deyarli har beshinchi kishi yoki barcha ish bilan band bo'lganlarning 19 foizi o'zlarini va oilalarini o'ta yoki o'rtacha kambag'allikdan olib chiqish uchun etarli pul topolmadilar. Bu ularning daromadlari xarid qilish qobiliyati pariteti bo'yicha kuniga 3,20 AQSh dollaridan kam bo'lganligini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich 2024 yilga kelib 575 million kishiga tushishi prognoz qilinmoqda. Kambag'allik bo'lmagan ko'p sonli aholi orasida kambag'allik ta'siri doirasiga tushib qolishning ehtimoli bo'lganlar soni ortib borishi, kambag'allikni qisqartirish yo'lida amalga oshirilayotgan turli strategik islohotlar natijadorligini pasayishiga zamin yaratadi”⁶⁷.

Kambag'allik darajasi kamaytirish va aholi daromadlarini oshirish borasida Germaniyada katta tajriba to'plangan. Germaniya iqtisodiyoti jahonning hajmi bo'yicha to'rtinchi iqtisodiyoti bo'lib, 4 trln. AQSh dollaridan ortiq YaIMga ega hisoblanadi. Kishi boshiga o'rtacha daromad 50 ming AQSh dollaridan ortiqni tashkil etadi. Germaniyada ijtimoiy himoya dasturi ham davlat, ham xususiy sektorning roliga bog'liq holda shakllantirilgan. Ushbu metodning mavjudligi ish beruvchilarga ham ma'lum ma'noda ijtimoiy majburiyatlarni yuklaydi. Bunda ish beruvchi va xodimlar o'rtasida ijtimoiy fondlar uchun to'lovlarning taqsimoti kabi jihatlar o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi.

Germaniya 2023-2024 yillarda rivojlangan iqtisodiyoti va ijtimoiy himoyasi yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlardan biridir. Bu nafaqat Evropaning eng boy mamlakatlaridan biri, balki 2023-2024 yillarda Germaniyada turmush darajasi juda yuqori bo'lgan eng gullab-yashnagan mamlakatlar orasida eng yaxshi beshlikka kiradi, ammo agar biz nemislarning daromadlarini taqqoslasak, ular Shengen zonasining boshqa mamlakatlari orasida eng katta emas, lekin ular ham eng kichik emas. Nemis ish haqi asosan kasbga va uning malakasiga, ish joyining joylashgan joyiga bog'liq. Darhaqiqat, rivojlangan va yirik mintaqalarda daromadlar kichik viloyatlarga qaraganda ancha yuqori.

O'qituvchilar 6 ming evrodan oladilar, ammo bu barcha toifalar emas, aksariyatida atigi ikki yarim ming bor. Qurilish sohasi va mashinasozlik muhandislari dasturchilar yoki avtobuslar va taksilar haydovchilariga nisbatan yuqori maosh oladilar, ikkinchisining ish haqi darajasi bir yarim – ikki ming evrogacha etib bormaydi. Germaniyadagi pensiya ta'minoti tizimi MDH mamlakatlari tizimiga o'xshaydi. Har bir fuqaro o'z maoshidan har oy pensiya sug'urtasini o'tkazishi kerak, bu mamlakatda oylik daromadining o'n to'qqiz yarim foizini tashkil qiladi.

⁶⁷ World Employment and Social Outlook: Trends 2020 / International Labour Office – Geneva: ILO, 2020. 108p. p37.

2024-yil 1-yanvardan boshlab Germaniyada soatiga 12,41 evro miqdorida yangi eng kam soatlik ish haqi belgilandi. Standart ish haftasida (kuniga sakkiz soat va oyiga yigirma ikki ish kuni) eng kam ish haqi oyiga 2184,16 evroni tashkil qiladi. Biroq, nemis ishchilarining aksariyati ancha katta miqdordagi mablag'ni olishadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyada doimiy ishchilar uchun o'rtacha ish haqi oyiga 4105 evro. Agar biz barcha ishchilarni, shu jumladan yarim kunlik ishchilarni hisobga olsak, unda davlat manbalari o'rtacha 3092 evro yalpi deb atashadi. Biroq, umumiy o'rtacha ko'rsatkich haqiqiy ish haqi dinamikasini yomon aks ettiradi: turli kasblar va sohalar vakillarining daromadlari juda farq qiladi. Shuning uchun kasb, sanoat, yashash joyi va o'quv dasturiga qarab o'rtacha daromadni taqqoslash muhimdir.

Germaniyada ijtimoiy yordam dasturi mavjud bo'lib, ushbu dastur oilaning soni va tarkibi, ijara kabi omillari asosida qamrab olishni nazarda tutadi. Ushbu moddiy yordam shakli ishsizlik nafasidan farqli ravishda uzoq muddatga amal qiladi. O'z navbatida, ishsizlik nafaqasi esa bosqichma-bosqich 12-32 oy mobaynida to'xtatib boriladi. Ishsizlik nafaqasi yolg'iz bo'lganlarga oxirgi 12 oy davomidagi daromadi, ishsizlik sug'urtasi kabilarga asoslangan holda ularning 60 foizi miqdorida to'lab beriladi. Ijtimoiy yordam oilaga minimal daromad miqdorini ta'minlashni nazarda tutadi. Bunda oila boshlig'ining bazaviy xarajatlari e'tiborga olinadi. Keyingi har bir oila a'zosining yoshiga doir bo'lgan bazaviy xarajatlar va oilaning ijara yoki ipoteka xarajatlari, energiya resursi xarajatlari inobatga olingan holda ijtimoiy yordam to'lab boriladi. Ijtimoiy yordam oladigan shaxslar o'z imkoniyatlari doirasida mehnat qilishlari va daromadlarga ega bo'lishlari tavsiya etiladi.

Germaniyada "Sozialgesetzbuch" (SGB – Ijtimoiy kodeks) ijtimoiy yordamning amalga oshirilishini ta'minlab beradi. "Sozialgesetzbuch" (SGB – Ijtimoiy kodeks) turli bo'limlardan iborat bo'lib, ularning har biri alohida ijtimoiy sohalarni tartibga soladi. SGB XII – bu "Sozialhilfe" (ijtimoiy yordam) bo'limi bo'lib, u 2005-yildan kuchga kirgan va avvalgi "Bundessozialhilfegesetz" (BSHG)ni almashtirgan. Ushbu kodeksga oxirgi o'zgarish 2023-yil 16-avgustdagi 217-sonli qonuni asosida kiritilgan bo'lib, unda ijtimoiy yordamni ta'minlash va unda davlatning roli, nemislarga xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi jihatlar o'zining aksini topgan. Ijtimoiy yordam oilaga minimal daromad miqdorini ta'minlashni nazarda tutadi.

Quyidagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, SGB XII Germaniya ijtimoiy davlat modelida aholining minimal yashash darajasini kafolatlovchi muhim huquqiy instrument sifatida e'tirof etiladi. Ushbu mexanizmning asosiy vazifasi mehnatga layoqatlilik holatidan qat'i nazar, jamiyatning barcha qatlamlari uchun insoniy turmush kechirishga zarur bo'lgan minimal moddiy ta'minotni kafolatlashdan iboratdir.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

Vol 2. No 9,

1-jadval.

Germaniyada "Ijtimoiy kodeks" (SGB XII) bo'ijtimoiy davlat modeli⁶⁸

Ijtimoiy yordam turi	Mazmuni	Kimlarga taalluqli
Lebensunterhaltni ta'minlash (Grundsicherung zum Lebensunterhalt)	Asosiy ehtiyojlar: oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, kommunal xizmatlar xarajatlarini qoplash	Ishlay olmaydigan, daromadi minimal ehtiyojni qoplamaydigan shaxslar
Yoshi va mehnat qobiliyati cheklanganlarga asosiy ta'minot (Grundsicherung im Alter und bei Erwerbsminderung)	Qarilik pensiyasiga chiqqan yoki doimiy mehnat qobiliyati yo'q shaxslar uchun moddiy yordam	65 yoshdan oshganlar, nogironligi sabab ishlay olmaydiganlar
Sog'liqni saqlash xarajatlari (Hilfen zur Gesundheit)	Tibbiy xizmat, dori-darmon, rehabilitatsiya, nogironlik jihozlarini moliyalashtirish	Sug'urtasi yo'q yoki xarajatlarni qoplashga qodir bo'lmagan shaxslar
Nogironlar uchun integratsiya (Eingliederungshilfe für behinderte Menschen)	Nogironlarning jamiyatga integratsiyasi: ta'lim, kasbiy rehabilitatsiya, maxsus xizmatlar	Jismoniy yoki aqliy nogironligi bo'lgan shaxslar
Maxsus hayotiy vaziyatlarda yordam (Hilfen in besonderen Lebenslagen)	Favqulodda vaziyatlar: uy-joysizlar, qarovsiz qariyalar, zo'ravonlik qurbonlari uchun qo'llab-quvvatlash	Ijtimoiy jihatdan og'ir ahvoldagi shaxslar
Qaramlarga yordam (Hilfe zur Pflege)	Qarilik yoki kasallik sabab kundalik parvarishga muhtoj bo'lganlarga yordam	Qarovga muhtoj qariyalar va nogironlar
Dafn xarajatlariga yordam (Hilfe zur Bestattung)	Vafot etgan shaxsni dafn qilish xarajatlarini qoplash	Qarindoshlari moliyaviy qodir bo'lmagan hollarda

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, Germaniya 2023–2024 yillarda yuqori iqtisodiy salohiyat bilan rivojlangan va keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimi uyg'unlashgan davlatlar qatorida alohida ajralib turadi hamda aholi daromadlari ham o'sib bormoqda.

Kambag'allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini yanada yaxshilash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalarni bajarishga alohida e'tibor qaratilgani bilan ahamiyatlidir. BMT tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari bizning mamlakatimizda ham amalga oshirilishini o'z zimmasiga olganligini ta'kidlash lozim. Bu borada Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Malayziya va boshqa davlatlarning tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq.

2-jadval

Xitoy Xalq Respublikasi hududlarida kambag'allik kamaytirish strategiyasini amalga oshirish bosqichlari⁶⁹

Bosqichlar	Bajariladigan vazifalar
1-bosqich (1978-1985 yy.)	Dehqonlarga ekin turlarini mustaqil tanlash va etishtirish imkoniyati berilgan va mahsulotlarni kafolatli narxlarda sotilishi ta'minlagan
2-bosqich (1986-1993 yy.)	332 ta nisbatan rivojlanmagan hududlarda subsidiyalangan qarzlarni dasturi va samarali mehnat uchun imkoniyat dasturi amalga oshirildi hamda davlat byudjetidan grantlar ajratildi
3-bosqich (1994-2000 yy.)	Rivojlanishi sust hududlar soni 592 taga oshirilib ularda kambag'al aholining daromadini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va qo'shimcha faoliyatlarni yo'lga qo'yish kabi yordamlar ko'rsatilgan
4-bosqich (2001-2010 yy.)	592 ta hududdagi 150 ming kambag'al qishloqlarda integratsiyalashgan qishloqlarni rivojlantirish, mehnat resurslarini kasbga tayyorlash hamda provinsiyalarda sanoatni rivojlantirish dasturlari amalga oshirildi
5-bosqich (2011-hozirgi vaqtgacha)	Strategiyaning asosiy vazifasi iqtisodiy o'sish orqali kambag'allikni qisqartirish deb belgilandi va unga erishish maqsadida qator dasturlar amalga oshirildi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Xitoy tomonidan amalga oshirilayotgan Bir yo'l – bir makon tashabbusi doirasida 7,6 million nafarga yaqin aholi o'ta qashshoqlikdan chiqish, qariyb 32 million kishi esa o'z turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatiga

⁶⁹ www.worldbank.org.

TA'LIM, TARBIIYA VA INNOVATSIYALAR

Vol 2. No 9,

ega bo'lishi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar mazkur tashabbusning nafaqat transport-logistika va savdo aloqalarini rivojlantirish, balki global ijtimoiy farovonlikni oshirishdagi muhim iqtisodiy omilga aylanayotganini ham tasdiqlaydi.

Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy islohotlar va uzoq muddatli ijtimoiy siyosat uyg'unligi kambag'allikka qarshi kurashda muhim omildir. So'nggi o'n yillikda davlat tomonidan ajratilgan yirik mablag'lar, hududiy tajriba almashinuvi va qishloq xo'jaligi hamda infratuzilmani rivojlantirish dasturlari natijasida 90 milliondan ortiq aholi kambag'allikdan chiqdi.

3-jadval

Aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha xorij tajribasining tahliliy jadvali⁷⁰

T/r	Mamlakat / Model	Qo'llanilgan asosiy strategiya va mexanizmlar	Erishilgan asosiy natijalar	O'zbekiston uchun transformatsiya imkoniyatlari (Tavsiyalar)
1.	Xitoy (Manzilli model)	<ul style="list-style-type: none"> • “Maqsadli kambag'allikni tugatish” dasturi • Har bir kambag'al xonadonni elektron bazaga kiritish. • Har bir oilaga mas'ul xodim biriktirish. 	<ul style="list-style-type: none"> • Oxirgi 40 yilda 800 milliondan ortiq odam kambag'allikdan chiqarildi. • Mutloq kambag'allik to'liq tugatildi. 	<ul style="list-style-type: none"> • “E-aktiv” va reyting bazalarini yanada takomillashtirish. • “Hokim yordamchilari” tizimi samaradorligini raqamlashtirish orqali oshirish.
2.	Germaniya (Ijtimoiy-bozor modeli)	<ul style="list-style-type: none"> • Dual ta'lim tizimi (talaba haftaning 2 kuni nazariya o'qiydi, 3 kuni korxonada maosh olib ishlaydi). • "Hartz" islohotlari: ishsizlik nafaqasini faol ish qidirish 	<ul style="list-style-type: none"> • Yoshlar o'rtasidagi ishsizlik Yevropada eng past darajaga tushdi. • Ishsizlarni qayta tayyorlash va tezkorlik bilan mehnat bozoriga qaytarish tizimi yaratildi. 	<ul style="list-style-type: none"> • Professional ta'lim (texnikumlar)ni yirik sanoat korxonalari va klasterlarga biriktirib, dual ta'limni majburiy qilish. • Ishsizlik nafaqasi oladigan shaxslarga bo'sh

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

		<p>majburiyati bilan bog'lash.</p> <ul style="list-style-type: none"> • "Minijob" (kichik bandlik) tizimi orqali vaqtinchalik va moslanuvchan ish o'rinlarini qonuniylashtirish. 		<p>ish o'rinlarini rad etishni cheklovchi mexanizm joriy etish.</p>
3.	<p>Janubiy Koreya (Saemaul Undong)</p>	<ul style="list-style-type: none"> • "Yangi qishloq" harakati. • Boqimandalikni cheklash: davlat faqat harakat qilgan va natija ko'rsatgan qishloqlarga yordam bergan. • Jamoaviy mehnatni rag'batlantirish. 	<ul style="list-style-type: none"> • Qishloq va shahar o'rtasidagi daromadlar farqi yo'qoldi. • Aholi tafakkuri "o'z-o'zini ta'minlash" g'oyasiga o'zgardi. 	<ul style="list-style-type: none"> • Mahallalarga beriladigan subsidiyalarni "natijaga qarab rag'batlantirish" tamoyili asosida taqsimlash. • Kooperatsiyalarni qishloq infratuzilmasini yaxshilashga yo'naltirish.
4.	<p>Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Norvegiya)</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Inson kapitaliga yuqori investitsiya. • Mutlaqo bepul va sifatli ta'lim hamda tibbiyot. • Progressiv soliq tizimi (boylardan ko'proq, kam daromadlilardan kamroq soliq). 	<ul style="list-style-type: none"> • Dunyoda daromadlar tengsizligi (Jini koeffitsiyenti) eng past darajaga tushdi. • Ijtimoiy himoya reytinglarida yetakchilik. 	<ul style="list-style-type: none"> • Kambag'allikni qisqartirishni nafaqat pul berish, balki bepul kasb-hunarga o'qitish orqali hal etish. • Kambag'al oilalar farzandlariga oliy ta'limda kvotalar ajratish.
5.	<p>Lotin Amerikasi (Braziliya - "Bolsa Família")</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Shartli pul o'tkazmalari. • Oila pul yordamini olishi uchun farzandini maktabga yuborishi 	<ul style="list-style-type: none"> • Bolalar mehnati keskin kamaydi. • Maktabga qatnash ko'rsatkichi va 	<ul style="list-style-type: none"> • Ijtimoiy nafaqalarni (masalan, bolalar pulini) majburiy ta'lim va emlash

		va majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishi shart qilib qo'yilgan.	aholi salomatligi darajasi oshdi.	shartlari bilan bog'lash. • Nafaqalarni boqimandalikka emas, kelajak avlod rivojiga xizmat qildirish.
6.	Singapur (Faol bandlik modeli)	• Nafaqaxo'rlikka qarshi kurash. • "Markaziy jamg'arma fondi" (CPF) orqali aholini majburiy ravishda uy-joy va tibbiyot uchun jamg'arma yig'ishga majburlash.	• Aholining 90% dan ortig'i shaxsiy uy-jobiga ega bo'ldi. • Davlatga qaramlik minimal darajaga tushdi.	• Ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlagan tadbirkorlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish. • Uy-joy sotib olish uchun ijtimoiy ipoteka tizimini kuchaytirish.

- **Maqsadli (manzilli) va mobilizatsiya modellari (xitoy, j. koreya):** Bu model kambag'allik darajasi yuqori va qishloq aholisi ko'p bo'lgan davlatlarda yuqori samara beradi. Xitoy har bir oilani "mikro-tahlil" qilib, muammoni ildizi bilan davolagan bo'lsa, Janubiy Koreya aholiga pul emas, xomashyo berib, ularni mehnatga safbar etgan ("Harakat qilganga yordam beriladi" tamoyili).

- **Inson kapitali va dual ta'lim modellari (Germaniya, Skandinaviya):** Bu tizimlar kambag'allik paydo bo'lishining oldini oladi (profilaktika qiladi). Germaniyadagi dual ta'lim bitiruvchining ishsiz qolish xavfini nolga tushiradi, chunki u o'qish davridanoq biznes talablariga moslashadi. Skandinaviyada esa bepul ta'lim va tibbiyot kambag'al oilada tug'ilgan bolaga ham boylar bilan teng start maydonini taqdim etadi.

- **Rag'bat va shartli majburiyatlar modellari (Singapur, Lotin Amerikasi):** Singapur boqimandalikni qat'iy rad etib, aholini o'z kelajagi uchun pul jamg'arishga majburlaydi. Braziliya esa ijtimoiy nafaqani majburiyat (ta'lim va tibbiyot) bilan bog'lab, kambag'allikning avloddan-avlodga o'tish zanjirini uzadi.

Jadval tahlili kambag'allikni qisqartirish bo'yicha quyidagi umumiy qonuniyatlarni ochib beradi:

"Tayyor baliq emas, qarmoq berish" tamoyili: Barcha muvaffaqiyatli davlatlar (hatto ijtimoiy yo'naltirilgan Germaniya va Skandinaviya ham) to'g'ridan-to'g'ri va shartsiz pul

tarqatishdan qochadi. Davlat ko'magi doimo kasbga o'qish, ish qidirish yoki farzandini o'qitish majburiyati bilan bog'lanadi.

Raqamlashtirish va ma'lumotlar aniqligi: Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat yordami adolatli bo'lishi uchun "kim haqiqatda kambag'al?" degan savolga aniq javob bo'lishi shart. Bunga faqat raqamli ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali erishiladi.

Biznes va davlat hamkorligi: Germaniya va Singapur tajribasida davlat muammoni yolg'iz hal qilmaydi. U tadbirkorga sharoit yaratadi (yoki majburlaydi) va tadbirkor kambag'al qatlamni ish bilan ta'minlaydi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot ishi doirasida aholi farovonligini oshirish, daromadlar tengsizligini muvozanatlash va kambag'allikni qisqartirish borasidagi jahon amaliyoti hamda yetakchi xorijiy modellar tizimli ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar va o'rganilgan tajribalar asosida quyidagi fundamental xulosalar shakllantirildi:

1. Kambag'allik universal emas, lokal yondashuvni talab etadi: Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, kambag'allikka qarshi kurashda yagona va universal formula mavjud emas. Xitoyning "manzilli" (Targeted) modeli, Janubiy Koreyaning "Saemaul Undong" mobilizatsiya strategiyasi, Germaniyaning ijtimoiy-bozor iqtisodiyoti va Skandinaviya davlatlarining inson kapitaliga asoslangan modellari har bir mamlakatning o'z demografik, madaniy va iqtisodiy voqeligidan kelib chiqib muvaffaqiyat qozongan.

2. Boqimandalik iqtisodiy taraqqiyotning dushmanidir: Muvaffaqiyatli xorijiy modellarning barchasi (ayniqsa, Singapur va Germaniya) shartsiz va doimiy pul nafaqalari tarqatish tizimidan voz kechgan. Davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy ko'mak har doim muayyan shartlar (faol ish qidirish, kasb-hunar o'rganish, farzandlarini o'qitish) bilan bog'lanishi zarur. Aks holda, ijtimoiy yordam kambag'allikni tugatmaydi, balki uni surunkali shaklga (boqimandalikka) keltirib chiqaradi.

3. Inson kapitali — eng barqaror investitsiya: Germaniya va Skandinaviya tajribasi isbotlaganidek, kambag'allikning avloddan-avlodga o'tish zanjirini uzishning yagona yo'li — sifatli ta'lim va inklyuziv sog'liqni saqlash tizimidir. Sanoat korxonalarini bilan integratsiyalashgan dual ta'lim tizimi yoshlarning mehnat bozorida tezda munosib ish va daromad topishini kafolatlaydi.

4. Raqamlashtirish va adolatlilik mezonlari: Xitoy tajribasining eng kuchli jihati — har bir ehtiyojmand oilaning raqamli pasportini yaratish va yordamning aynan maqsadli manzilga yetib borishini ta'minlash bo'ldi. Bu tizim resurslarning isrof bo'lishini oldini oladi va jamiyatda ijtimoiy adolat hissini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.** Muhammadjonov, B. Iqtisodiy Tarmoqlarni Rivojlantirishda Investitiya Jalb Qilishning Mexanizmlarini Takomillashtiish. *Green Economy and Development*, 3(12), 668385.
- 2.** Ganiev, M. K. (2021). THE INTRODUCTION OF THE IRON BOOK, WOMEN AND YOUTH BOOKS AS AN IMPORTANT ASPECT OF THE FIGHT AGAINST POVERTY. In *Актуальные вопросы современной науки и образования* (pp. 59-61).
- 3.** Ganiev, M. K. (2021). THE INTRODUCTION OF THE IRON BOOK, WOMEN AND YOUTH BOOKS AS AN IMPORTANT ASPECT OF THE FIGHT AGAINST POVERTY. In *Актуальные вопросы современной науки и образования* (pp. 59-61).
- 4.** Khalilovich, G. M. (2025). Income Stratification of the Population and Opportunities to Increase Incomes. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 49, 45-49.